



O'zbekiston Davlat Konservatoriysi, magistratura bo'limi talabasi  
**Saydullaeva Zilolaxon Mannon qizi**

## AVAZ MANSUROVNING ESTRADA QO'SHIQCHILIK IJODIYOTI.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston yoshlar mukofoti sovrindori, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, O'zbekiston davlat konservatoriysi "Kompozitsiya va cholg'ulashtirish" kafedrasi professori, kompozitor, Botir Zokirov nomidagi milliy Estrada instituti rektori Avaz Maqsudovich Mansurov ijodi, xususan, estrada janrida yozgan qo'shiqlari haqida so'z boradi.

**Аннотация:** В данной статье представлено творчество Аваза Максудовича Мансурова, Лауреата Молодежной премии Узбекистана, члена Союза композиторов и бастакоров Узбекистана, профессора кафедры «Композиция и инструментовка» Государственной консерватории Узбекистана, ректора Национального института эстрады имени Батыра Закирова, в частности, говорится о написанных им песнях в жанре эстрады.

**Annotation:** This article presents the work of Avaz Maksudovich Mansurov, Laureate of the Youth Prize of Uzbekistan, member of the Union of Composers and Bastakors of Uzbekistan, professor of the Department of Composition and Instrumentation of the State Conservatory of Uzbekistan, rector of the National Variety Institute named after Batyr Zakirov, in particular, talks about the songs he wrote in the stage genre.

O'zbekiston yoshlar mukofoti sovrindori, O'zbekiston davlat konservatoriysi "Kompozitsiya va cholg'ulashtirish" kafedrasi professori, kompozitor, Botir Zokirov nomidagi milliy Estrada instituti rektori Avaz Maqsudovich Mansurov faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz uning har bir yaratgan asarlari ko'ngillarga shodlik, quvonch hislarini uyg'otadi. U tabiatan jiddiy va o'ziga nisbatan talabchanligi bilan barcha kasbdoshlar ichida yaxshi o'rnak bo'la oladi.

A.Mansurov 1957 yil 2- noyabrda Qo'qon shahrida ziyorolar oilasida tavallud topgan. Musiqiy dramatik teatrning aktyori va rejissori hamda mahoratli sozanda bo'lган otasi



tufayli bolalik davridanoq san'atga mehr qo'ydi. Uning san'atimiz rivojida, musiqa va qo'shiqchilik sohasida o'ziga xos o'rni bor. A.Mansurovning uslubi shunchalar yorqinki, uning asarlari yangrashi bilan tez fursatda esda qolib xalq orasida mashhur bo'lib ketadi. Qo'shiqlari yalla, qo'shiq, lapar singari bandli-naqorat shaklida tuzilib ulardagi, o'zbek nutqining musiqaga singib ketganligini ko'rishimiz mumkin. Orkestrovkasi esa kompozitorga xos bo'lган zamонавиј “estradashtirilgan” uslubda yozilgan.

Bugungi kunda A.Mansurov estrada va klassik musiqasining qarama-qarshiligini bartaraf etib, bolalar musiqasi janrini murakkab professional darajada ko'targan ijodkor sifatida mustahkam joy egalladi. Uning bolalar uchun yozgan asarlari ijodining asosini tashkil qiladi. Kompozitor bolalar va kattalar jamoasi uchun sermabsul ijod qilgan. Uning asarlaridagi fikr bayoni aniq bo'lib, milliy ohanglarga boyligi, ijodkor tilining barchaga tushunarli bo'lганligi asosiy yutuqlaridan biridir. Shu bilan birga u bolalarning ichki dunyosini va kayfiyatini yaxshi tushuna olganligi sababli , bolalar uchun yozilgan “Quyosh bilan suhbat”, “Kel baxt kuyin kuylaylik”, “Quvnoq yomg'ir”, “Bu chamanzor kimniki”, “Kim epchil-u kim chaqqon”, “Quvnoq bolalar” kabi 100 dan ortiq yakkaxon va xor jamoalari uchun yozilgan qo'shiqlari hamon yoshlar qalbiga zavq bag'ishlab kelmoqda. Ularda jo'shqin, hushchaqchaq, bolalar o'yinlariga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, o'zining tuzilishi jihatidan lo'nda, ixchamligi, kuylarining esa yorqin, ohangdorligi bilan tinglovchilar qalbidan chuqur joy egallab keladi. Kompozitorning aksariyat qo'shiqlari Shermat Yormatov rahbarligidagi “Bulbulcha” bolalar xor jamoasi dasturining asosini tashkil etdi va keng jamoatchilikka tanildi.

Misol tariqasida kompozitorning “Kim epchil-u kim chaqqon” qo'shig'i xalq orasida mashxur asarlaridan biridir. Anvar Obidjon so'zlariga yozilgan bu asar ko'tarinki ruhdagi cholg'u muqaddimasi bilan boshlanib 6 taktni tashkil etadi. Qo'shiqning shakli noananaviy ko'rinishda – naqorat bilan boshlanadi. Naqoratda kompozitor ko'pgina og'ishmalardan foydalangan, masalan: 8- taktida A-dur , 9-taktida d- moll va 10- taktlarda a-mollga dominantseptakkordlari orqali og'ishmalarni kuzatishimiz mumkin. 1-kuplet huddi naqorat qismidek I va V- pog'onalari orqali boshqa tonallik, a-mollda boshlanadi. Bu qo'shiqda o'ziga xos bo'lган musiqa vositalari orqali hushchaqchaq va o'ynoqi bolalar timsoli gavdalantirilgan.



A.Mansurovning bolalar uchun yozilgan “Kel, baxt kuyin kuylaylik!” nomli qo’shig’i esa G’iyos Komilov so’zlariga yozilgan bo’lib, melodik mi-minor tonalligidagi yangraydi. Asar fortepiano va doira musiqa cholg’ularining sadolari bilan ulug’vor va jo’shqin kayfiyatidagi cholg’u muqaddimasi bilan boshlanadi. Qo’shiq band va naqorat shaklida yozilgan bo’lib, undagi misralar yakkaxon va xor jamoalari tomonidan birin-ketin navbat bilan ijro etiladi Naqorat qismida taqqoslama sifatidagi major-minor tonalligidagi foydalanilgan ya’ni e-molldan E-durga o’tilgan, lekin asarning ohiri e –minor bilan tugallanadi. Bundan tashqari kompozitor naqorat qismida bo’lingan kodensiyalarni ifodalagan. Ya’ni 5 chi va 7- taktlarda VII septakkordining VI-pog’onaga yechilishini kuzatishimiz mumkin. Kuplet va naqorat o’rtasidagi bo’g’lovchi musiqiy iboralarining o’ziga xos jozibador ohanglari tinglovchilarining qalbida ko’tarinki rux bag’ishlaydi. Asardagi so’z va musiqa bolalarining bir-birlariga baxt ulashib, shodon-quvnoq kayfiyatini hamda baxtli bolalik tuyg’ularini ifodalab beradi. Bu qo’shiq kompozitorni bolalarining baxtli turmushini ifoda etadigan mashxur asarlaridan biridir.

Bolalar estrada qo’shiqlari haqida so’z yuritar ekanmiz avvolo bu qo’shiqlar O’zbekiston yosh avlodlarining ma’naviy dunyosini shakllantiradi, milliy ruhda yo’g’rilgan bolalar estrada qo’shiqlari ularni har tomonlama yetuk, fikrashi, dunyo qarashi keng, komil inson etib tarbiyalaydi. Zeroki, hech bir jamiyat odamlar ongida ma’naviy salohiyat, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmasdan va mustahkamlamasdan turib o’z istiqbolini ko’ra olmaydi. Shu sababli ham hozirgi kunda bolalar qo’shiqchiliga ko’proq etibor bergen holda umumta’lim maktablarda milliy ruhdagi estrada qo’shiqlarini bolalarga yaqindan tanish bo’lgan cholg’ularimizda ijro etib, qo’shiq kuylab, o’zini vataniga va milliy musiqiy madaniyatiga bo’lgan qiziqishlarini o’stirish zarurati tug’iladi.

A. Mansurovning bolalar qo’shiqlaridan tashqari 60 dan ortiq yoshlar uchun estrada qo’shiqlari ham mavjud. Bulardan 1981 – yilda yaratilgan Hurriyat Isroilova ijrosidagi “Qizlar kelmoqda”, “Gullasa baxtim”, “Nurli yil” birinchi ijod namunalaridan hisoblanib, xalq orasida olqishlarga sazovor bo’ldi, shu bilan birga estrada janridagi “Navro’z”, “Oydin yo’l”, “Sog’inib uyg’onar tonglar”, “Chamandagi chamanim” kabi qo’shiqlari taniqli honandalar repertuaridan joy egallagan.



Kompozitorning xalq orasida ma'lum va mashxur asarlaridan biri bo'lgan "O'zbekiston – do'stlik diyori" qo'shig'i Normurod Nazrullayev so'zlariga yozilgan bo'lib, tinglovchilar qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda. Asar tuzilish jihatidan kirish, kuplet, naqorat, bog'lovchi va koda qismlaridan tashkil topgan. Garmonik jihatidan boshidan ohirigacha bir tonallik ya'ni F-majorda yangraydi, shu bilan birga II va VI pog'onalarini, garmonik majorakkordlari va turli tonalliklarga og'ishmalarni uchratishimiz mumkin. Masalan: kirish va naqorat qismlarida D7akkordi orqali II-pog'ona ya'ni g-molldagi vaqtinchalik og'ishma yoki kuplet qismida D9akkordi orqali VI-pog'ona – d-mollga og'ishmani kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari naqoratning so'ngi taktida, asar davomida, faqatgina bir marotaba Sakkordidan foydalilanligi qo'shiqdagi o'ziga xos xususiyatlardan biridir. Naqoratdan keyingi keladigan bog'lovchi qismida esa kirish mavzusining ohanglari yangraydi. Asarning yakuni kodada faqatgina T garmoniyasi mustahkamlangan bo'lib, qo'shiq yakunini tasdiqlab beradi.

"O'zbekiston – do'stlik diyori" qo'shig'ida vatan madhi kuylanib, kirish qismi ulug'vorlik ohanglarida yangraydi. Kuplet qismida esa har bir kichik iboralar yakkaxon va xorning birin-ketin navbat bilan takroran ijro etilishi oziga xos xususiyataridan biridir

Kompozitorning keng miqyosdagi ijodiy faoliyatida musiqaning deyarli barcha janrlarini kuzatish mumkin: "Xayvonlar sultonii" bolal 1ar operasi, "Sharq afsonasi" "baleti", "Sho'x shaytonchalar", "Uchar kovush" - musiqiy ertaklari, "Bir soatlik halifa" musiqiy komediya, "So'g'diyona" xalq cholg'ulari orkestri uchun "Moziydan sado" poema-fantaziysi, shu bilan bir qatorda ko'pgina fortepiano konsertlar, operalar, valsular bilan zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatiga katta hissa qo'shgan.

A. Mansurovning san'at targ'iboti bilan bog'liq tadbirlari, radio va televideniya orqali chiqishlari har doim muhlislar e'tiborida. Qolaversa, uning haqiqiy ijodkorlarga xos fazilatlari: o'ziga talabchanligi, kasbiga fidoyiligi, ta'limning mashaqqatli yo'lida zahmatkashligi, zamon talablariga hozirjavobligi, tashkiliy ishlarda jonkuyarligi biz yoshlar uchun ibratdir.

## Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:



1. Shoxista Ganixanova . “AVAZ MANSUROV (1957)”, monografik ocherk. Toshkent 2008
2. Jaxongir Yorqin. “ Beg’ubor qalb sohibi (isxor) . Toshkent, “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi.
3. A. X. Jabborov “Avaz Mansurov (1957) ”.

